

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.K.78.05. RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XOLMURODOVA LAZIZA ERKINOVNA

**NOORGANIK KIMYODA MODDALARNI SIMMETRIK
KO'RINISHLARGA AJRATISH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERAT**

Termiz – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xolmurodova Laziza Erkinovna

Noorganik kimyoda moddalarni simmetrik ko‘rinishlarga
ajratish asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish.....3

Холмуродова Лазиза Эркиновна

Совершенствование методики преподавания неорганической
химии на основе разложения веществ на симметричные проявления21

Kholmurodova Laziza Erkinovna

Improvement of the teaching methodology in inorganic chemistry
based on the separation of substances into symmetrical manifestations39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works42

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.K.78.05. RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XOLMURODOVA LAZIZA ERKINOVNA

**NOORGANIK KIMYODA MODDALARNI SIMMETRIK
KO'RINISHLARGA AJRATISH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERAT**

Termiz – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5236 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb-sahifasida www.tersu.uz va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Sodiq Norchayevich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Eshqurbonov Furqat Bozorovich

kimyo fanlari doktori, professor

Norbo'tayev Xo'shboq Bobonazarovich

pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.04.2022.K.78.05 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil «20» XII soat 11⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 270 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «7» XII kuni tarqatildi.

(2024-yil «7» XII daqiqa 1 - raqamli reyestr bayonnomasi).



Z.Z. Yaxshiyeva

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof.

Y.A. Geldiyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi, k.f.f.d.

P.J. Tojiyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., dots.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon oliy ta'lim tizimi pedagoglarni bo'lg'usi faoliyatga tayyorlashni, ya'ni ularni maktabda ta'lim berishga tayyorlashni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Ta'lim oluvchilarga fanlardan bilimlarni tizimli tarzda taqdim etishga tayyor holda oliy ta'lim bitiruvchisida shakllantiriladigan muhim aspektlardan biri sanaladi. U ta'lim oluvchilarda atrof-olamni o'rganishni va uni rivojlantirishni hamda ta'lim-tarbiya kabi komponentlarni ham amalga oshirishni ta'minlaydi.

Dunyo ta'limida organik kimyoni o'qitish bilan bir qatorda noorganik kimyoni o'qitish va o'rgatish yetakchi o'rinlarni birini egallaydi. Noorganik va organik kimyo fanlarini o'qitishni oliy ta'limda tayyorlanadigan o'qituvchilar o'zlarini keyingi ta'lim berish jarayonlarida amalga oshiradilar. Mazkur fanlarni oliy ta'limda o'rganish davomida talabalarda kimyoviy noorganik moddalar haqida tizimli tasavvurlar shakllangan bo'lishi hamda ta'lim berish amaliyoti uchun muvaffaqiyat asos hisoblanadigan ilmiy-metodik fikrlash rivojlangan bo'lishi lozim.

Mamlakatimiz oliy ta'limi talabalarida kimyo elementlari haqidagi bilimlarni shakllantirish formal tavsifga egaligi hozirgi vaqtda asosiy muammo sanaladi. Ta'limning kimyo kursini o'rganish an'anaviy shakllari, uni taqdim etilish va tashkiliy shakllari, metodlari talabalarda kimyo haqidagi tizimli tasavvurlarni nisbiy tarzda shakllantirishga ko'mak beradi. Mazkur muammo yechimi yuzasidan kimyo elementlarini o'rganish uchun taqdim etilayotgan yechimlarning asosini fundamentallashtirish va professionallashtirish tashkil etadi. Fundamentallashtirish va professionallashtirish kimyo elementlarini o'zlashtirishni asosi sifatida - umumiy kimyo kursining nazariy jihatlaridan nisbatan teran va tizimli tarzda foydalanishga tayanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2017- yil 23-avgustdagi "2017-2021 yillarga mo'ljallangan Kimyo sanoatini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi PQ-3236-son, 2012-yil 16-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida "Elektron ta'lim" milliy tizimini yaratish investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1740-son, 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida ta'lim muassasalarida elektron ta'limni joriy etish markazini tashkil etish to'g'risida"gi VMQ-228-sonli qarorlari hamda pedagogik faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda, innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Tabiiy fanlarni oʻqitishda innovatsion texnologiyadan foydalanish, kimyo va biologiya fanlarini oʻqitishda innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan Sh.Mirkomilov, H.Rasulov, S.A.Olimov, G.S.Ergasheva, G.A.Ixtiyarova, N.S.Umirov, N.Anvarova, S.Safarov, Z.K.Abidov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Oliy taʼlim muassasalarida oʻqituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish va talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish I.N.Borisov, X.T.Omonov, Sh.M.Mirkomilov, M.S.Hotamova, M.Nishonov, Sh.A.Mamajonov, N.X.Avliyaqulov, N.Boltayev, X.A. Mavlyanova va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

MDH davlatlarida kimyo oʻqitish metodikasini takomillashtirish, axborot texnologiyalarini qoʻllashga moʻljallangan kimyoga oid oʻquv materiallarining pedagogik samaradorligini oshirish boʻyicha A.A.Kuznetsov, A.A.Grechixin, T.M.Lepsova, E.S.Poʻlat, V.A.Vul, V.M.Gasov, A.M.Siganenko, V.N.Ageyev, M.M.Subbotin, Y.M.Sivenkov, E.Y.Semenov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda fan sohalarini oʻqitishda elektron darsliklar, interaktiv multimedia, web-quest, intellektual oʻyin texnologiyalaridan foydalanishga oid samarali tadqiqotlar B.Dogde, S.Goodman, R.Kozma, Zephrinus C., Njoku, Maria Limniou, Nikos Papadopoulos, David Roberts, N.Rizk, A.Sorgo, L.Masterman, T.March, Newton, J.Huppert, Ying Ouyang, Aleksey Porollo, Jaroslaw Meller, Milada Tepla kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalari bilan bogʻliqligi. Kimyo fanini oʻqitishda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F1-049 raqamli “Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” (2017-2021) mavzusidagi amaliy loyiha ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Oliy taʼlim muassasalari talabalariga noorganik kimyo fanini moddalarni simmetrik koʻrinishlarga ajratish asosida oʻqitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

noorganik kimyo fanini moddalarni simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida talabalarga o‘qitish metodikasi nuqtai nazaridan kimyo, psixologiya, pedagogika hamda metodikaga tegishli adabiyotlarni tadqiqot muammosi yuzasidan tahlil etish;

turli kurslarga tegishli noorganik moddalarni tarkibiy tuzilmasiga ko‘ra simmetrik ko‘rinishlarga ajratib talabalarga o‘rgatish muammosi yuzasidan aniqliklar kiritish;

kimyo ixtisosliklari talabalari uchun noorganik kimyo fanidan moddalarni simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida o‘qitish modelini ishlab chiqish;

talabalar uchun kimyo elementlarini ta‘lim mazmuniga ko‘ra tanlash va moddalar tavsifini simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida o‘qitish metodikasini taqdim etish, mazkur metodikaning natijadorligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta‘lim muassasalari kimyo yo‘nalishi talabalarini kimyo fanidan umumiy o‘rta ta‘lim maktab amaliyotiga tayyorlash jarayoni belgilab olindi.

Tadqiqot predmetini oliy ta‘lim kimyo ixtisosliklari talabalarini noorganik kimyo fanidan o‘qitish amaliyotiga tayyorgarligini amalga oshirishning mazmuni, shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot muammosiga doir nazariy, falsafiy, psixologik-pedagogik, kimyoviy va uslubiy adabiyotlar tahlili, didaktik modellashtirish, uslubiy tahlil, nazariy umumlashtirish, tajriba-sinov, kuzatish, so‘rovnoma va suhbatlar o‘tkazish, matematik-statistik tahlil.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

noorganik kimyo fanini o‘qitish mazmuni o‘quv kursining an‘anaviy, tizimli-tuzilmaviy, tizimli-shajaraviy komponentlari harakatlar sxemasini kontekstual yondashuvning izomorfeg, minimallashtirish, majmuaviylik kabi mezonlar orqali algoritmini qurish asosida aniqlashtirilgan;

noorganik kimyo fanini o‘qitish jarayoni kasbiy kompetensiyani rivojlantirish elementlari ta‘limning ilmiy hamda amaliy xususiyatlarini tashxislovshi imkoniyatiga urg‘u beruvshi didaktik tizimning texnokratik komponentini faoliyatga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

noorganik kimyo fanini o‘qitishda konseptual mezonlar asosida taklif etilgan funksional modelining mazmun komponenti kimyoviy elementlar, jarayonlar va reaksiyalarni simmetrik ko‘rinishlarga singonik ajratishga ko‘ra o‘qitish bosqichlarining muayyan ierarxik tuzilmasini kognitiv o‘quv jarayoniga tatbiq etish asosida takomillashtirilgan;

noorganik kimyo fanini o‘qitish metodikasi invarianti, subinvariant hamda variativ elementlar tizimini simmetrik ko‘rinishlarga ajratishga doir vizual o‘quv materiallari, grafik organayzerlar va virtual o‘quv materiallarini innovatsion muhitga moslashtirilgan holda integratsiyalash orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari: noorganik kimyo fanini moddalarni simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida talabalarga o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni mazmunining ijtimoiy, psixologik-pedagogik omillari aniqlashtirilgan hamda innovatsion metodlar orqali ta‘limni tashkil etish samaradorligi takomillashtirilgan;

noorganik kimyo fanining moddalarini simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida talabalarga o‘qitishda “Umumiy va noorganik kimyo” elektron dasturiy ta’minot hamda dastur orqali o‘quv, faoliyatini faollashtirishning samarali metodikasi ishlab chiqilgan;

tadqiqot davomida amalga oshirilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy izlanishlar asosida “Umumiy va noorganik kimyo” o‘quv qo‘llanmasi nashr ettirilgan;

noorganik kimyo fanini moddalarni simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida talabalarni o‘qitishga doir elektron platforma ishlab chiqilgan hamda <https://www.youtube.com/watch?v=FwLmTaQpsEg> saytiga joylashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida qo‘llanilgan yondashuv va metodlar, foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarining ishlariga asoslanganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari yordamida tasdiqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, talabalar uchun moddalar tavsifi va ular bilan bog‘liq kimyoviy jarayonlarni simmetrik ko‘rinishlarga ajratib talabalarga o‘rgatish muammosi yuzasidan ta’lim berishning yaxlit metodikasi taqdim etilganligida o‘z aksini topadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, tadqiqot muammosi bilan bog‘liq o‘qitish metodikasining “Umumiy va noorganik kimyo” o‘quv qo‘llanma orqali taqdim etilganligi, didaktik materiallar, metodik ishlanmalar, talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etish uchun materiallar majmuasi, noorganik kimyo bo‘yicha umumlashgan bilimlarni shakllantirish metodikasiga bag‘ishlangan ishlarni taqdim etilganligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kimyo fanini o‘qitish mazmuni simmetrik ko‘rinishlarga ajratishning invariant, subinvariant va variantiv komponentlari bilan, ta’limning motivatsion, kognitiv, faoliyatli elementini bosqichma-bosqich integratsiyalash asosida:

noorganik kimyo fanini o‘qitish mazmuni o‘quv kursining an’anaviy, tizimli-tuzilmaviy, tizimli-shajaraviy komponentlari harakatlar sxemasini kontekstual yondashuvning izomorfeg, minimallashtirish, majmuaviylik kabi mezonlar orqali algoritmini qurish asosida aniqashtirilgan hamda noorganik kimyo fanini o‘qitish jarayoni kasbiy kompetensiyani rivojlantirish elementlari ta’limning ilmiy hamda amaliy xususiyatlarini tashxislovshi imkoniyatiga urg‘u beruvshi didaktik tizimning texnokratik komponentini faoliyatga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan ma’lumotlardan “Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” mavzusida loyiha ishlarida joriy etishda foydalanilgan (Jizzax politexnika instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining OT-F1-049 raqamli 2023 yil 26 apreldagi 03-1149-1148-son ma’lumotnomasi). Natijada, kimyo yo‘nalishi talabalarining kreativlik va ko‘nikmalarni shakllantirish muammosi nuqtai nazaridan talabada shakllanishi lozim bo‘lgan kimyoviy bilim va ko‘nikmalar tarkibiy komponentlarini yanada rivojlantirish imkonini bergan;

noorganik kimyo fanini o'qitishda konseptual mezonlar asosida taklif etilgan funksional modelining mazmun komponenti kimyoviy elementlar, jarayonlar va reaksiyalarni simmetrik ko'rinishlarga singonik ajratishga ko'ra o'qitish bosqichlarining muayyan ierarxik tuzilmasini kognitiv o'quv jarayoniga tatbiq etish asosida takomillashtirilgan hamda noorganik kimyo fanini o'qitish metodikasi invarianti, subinvariant hamda variantiv elementlar tizimini simmetrik ko'rinishlarga ajratishga doir vizual o'quv materiallari, grafik organayzerlar va virtual o'quv materiallarini innovatsion muhitga moslashtirilgan holda integratsiyalash orqali takomillashtirilgan xulosalar "Umumiy va noorganik kimyo" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 27 martdagi 68-son qaroriga asosan 68-717-son guvohnomasi). Natijada, kimyo fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish metodlarni kimyo elementlarini ta'lim mazmuniga ko'ra tanlash hamda kompetentlilik, aprobatsion korreksiyalash va elementlarni faktologik tavsifiga ko'ra simmetrik ko'rinishlarga ajratish asosida o'qitish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 21 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, bitta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 7 ta xorijiy jurnallarda, 8 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi: Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning ish bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Noorganik kimyo ta'limini oliy ta'limda amalga oshirishning nazariy asoslari**" deb nomlanib, ushbu bobda noorganik kimyo fanining nazariy-tarikibiy tuzilmasi keltirib o'tilgan, oliy ta'lim muassasalarida noorganik kimyoni o'qitish tamoyillari tahlil qilingan, kimyo ixtisosligi bitiruvchilari pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar o'rganilgan hamda kimyo fanini o'qitishga doir metodik va ilmiy manbalar tahlil qilingan.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning eng muhim kasbiy-pedagogik masalalaridan biri – maktabga mo'ljallangan va OTMda o'qitiladigan noorganik

kimyo kursi o'rtasidagi nisbat va bog'liqliklarni ochib berishdan iboratdir. Bunda ikki holatni imkon boricha chetlab o'tish lozim:

dasturdagi materialni yuqori nazariy darajada bayon qilish: bu orqali Oliy ta'lim muassasalarida kimyoni o'qitish bilan maktabda kimyoni o'qitish o'rtasida uzilish paydo bo'lishi kuzatiladi;

Noorganik kimyo kursini kasbiylashtirishning eng samarali usuli maktab kimyo kursida murakkab sanalgan mavzu va masalalarga jiddiy e'tibor qaratishdan iboratdir. Noorganik kimyo kursining ilmiy diapazoni shunday bo'lishi kerakki, unda kimyo sohasidagi barcha asosiy qonunlar fanning so'nggi yutuqlari nuqtayi nazaridan qaralishi hamda dars jarayonida bo'lajak kimyo o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi bo'yicha o'z dunyo qarashi shakllanishi lozim.

Shuningdek, noorganik kimyo bo'yicha laboratoriya va seminar mashg'ulotlariga kasbiy faoliyatga xos elementlar kiritilishining bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash samaradorligi ta'siriga bag'ishlangan dissertatsion tadqiqot ishlari ham mavjudki, ular qayd etilgan mavzuning yoritishga qaratilgan ahamiyatli ishlardan hisoblanadi.

Kimyo kursining an'anaviy tarkib mazmuni asosida o'qitishda o'quv fanlarining mantig'i qat'iy ilmiy asoslanganlikka ega bo'lmaydi. Kursning alohida mavzulari mantiqiy bayon vositasida bog'lanilmaydi.

Bilimlarni nazariy jihatdan shakllantirish mazmun tuzishning ikki ko'rinishi – tizimli-tuzilmaviy va tizimli-shajaraviy elementlardan foydalanish orqali ta'minlanadi.

Hozirgi vaqtda xorijiy OTMlarda o'qitiladigan umumiy va noorganik kimyo kursining tuzilmaviy tarkibi quyidagi: birinchi bo'lim – chiziqli-majmuaviy tamoyil asosida tuzilgan umumiy kimyo kursi va ikkinchi qism – elementlar kimyosi ko'rinishdadir. Ular o'rtasidagi farqlanish nazariy materiallarni o'zlashtirish hajmi, ularning matematikalashtirilish darajasi, laboratoriya xonalari jihozlanishi, kursni o'rganish uchun ajratilgan soatlar hajmi va kursni o'rganish tartibi kabi omillarga bog'liq.

Talabalarni maktab amaliyotiga tayyorlash jarayoniga faoliyatli yondashuvining psixologik-pedagogik jihatlari L.S.Vigotskiyning dunyoga mashhur ilmiy maktabi asarlarida o'rganilgan.

Kimyoni o'qitish metodikasidan olib borilgan tadqiqotlarda odatda P.Y.Galperin va N.F.Talizinalarning aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasiga e'tibor qaratiladi.

Xususan, faoliyatli yondashuviga asoslangan holda "Faoliyatli ta'lim nazariyasi asosida kimyoni o'qitish metodikasi" nomli qo'llanmada ko'proq e'tiborni metodologik tavsifdagi bilimlarga e'tibor berilgan, shu bilan birga darsliklarda ham, umumiy kimyoni o'rganish jarayonida ham ularni tashkil etishning faoliyatli yondashuv asosida, ya'ni P.Y.Galperin nazariyasiga tayangan holda mustahkamlashni taklif qilinadi.

Ma'lumki, P.Y.Galperin o'zlashtirish jarayonining besh bosqichini ajratib ko'rsatgan: birinchisi - harakatlarning dastlabki asosining sxemasini tuzish; ikkinchisi - harakatni moddiy yoki moddiylashtirilgan ko'rinishda shakllantirilishi (tashqi tayanch algoritmlar ko'rinishida); uchinchisi - harakatni umumlashgan tashqi

nutq, lekin kengaytirilgan va avtomatlashtirilmagan sifatida shakllantirilishi; to‘rtinchisi - o‘zi-o‘zi uchun harakatlarni tashqi nutqi, aqliy shaklda (ovoqsiz va yozuvsiz), bu harakat shakllanishini tezkor qisqarishi va avtomatlashtirilishiga olib keladi; beshinchisi - ichki nutqda harakatni shakllantirilishi, ong osti darajasida harakatni to‘liq avtomatlashtirilishi, ongning mavjudligi bilan faqat natija va hal qiluvchi bosqich birinchi-harakatning mo‘ljalni olish sxemasini tuzish bilan bog‘liq.

Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, faylasuflar, psixologlar, pedagoglar, metodistlar tomonidan juda ko‘plab o‘qitish tamoyillari ilgari surilgan.

Dastlab, bular: obyektivlik, bilish, determinizm, spiral bo‘ylab dialektik rivojlanish (didaktik darajadagi ba‘zi didaktlar tomonidan, so‘ngra metodistlar tomonidan oddiy tartib mohiyatidan yuqori tartib mohiyatigacha harakat tamoyiliga aylantirilgan), mazmun va mohiyat birligi, zarur hamda yetarli bo‘lgan nazariya hamda amaliyot birligi va shu kabilarning umumfalsafiy tamoyillaridir.

Undan keyin: izchillik, tizimlilik va muntazamlilik, iyerarxialilik, tizimlarning yaxlitligi, tarkiblashganlik, tizimlarni tasvirlash yo‘llarining ko‘pligi, tizim va muhitning o‘zaro munosabati, tarixiylik kabi umumiy tamoyillar keladi.

Keyingi guruh tamoyillari: ta‘lim-tarbiya va har tomonlama rivojlanish, ilmiylik, anglanganlik va pedagog rahbarligida talabalarning ijodiy faoliyati, ta‘limda nazariy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil ta‘lim orqali o‘zlashtirish, insonparvarlik, hayot bilan bog‘liqlik, yosh imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasiga muvofiqlik, mavjudlik, fanlararo aloqadorlik, motivatsiya, ta‘limda ijobiy emotsional asoslar, o‘quv jarayonida ta‘lim oluvchilarni ilm bilan boyitish kabilari - umumdidaktik tamoyillardir.

Tamoyillarning yana bir guruhi pedagogika ta‘limoti, izchil modellashtirish, shakllari va metodlarni yetarliligini, hamkorlikdagi faoliyatning yetakchi roli, o‘quv materiallarini yanada hajmi va murakkabligini optimallashtirib, yangi va an‘anaviy pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish, ta‘lim-tarbiya birligi tamoyilligi, shakl va metodlardan foydalanish va boshqalarning kasbga oid tamoyillarini o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalarni kimyo fani o‘qituvchisi sifatida tayyorlash uchun metodik tizimni ishlab chiqishda hisobga olinishi lozim bo‘lgan juda ko‘plab muhim tamoyillar mavjud. Faqat tamoyillar majmui vazifalarni muvaffaqiyatli belgilash, ta‘lim va tarbiyaning tarkibi, metod, vositalari va shakllarini tanlashni ta‘minlaydi.

Xususiy predmet darajasida tamoyillar tanlov mezonlarida transformatsiyalanadi. Ta‘lim mazmunini tanlash mezonlari - tanlash tizimining eng muhim elementidir. Har bir mezon ma‘lum bir belgi bo‘lib, tanlov jarayonida mazmun elementi mazkur belgiga muvofiq kelishligi asosida baholanadi.

“Quyidagi mezonlar: fanning aspektli muammolari tipologiyasiga o‘quv predmetining mos kelishlik mezoni;

aspektli muammolar tipologiyasidan foydalanishning to‘liqlilik mezoni;

fan metodlarining yoki aspektli muammolarni hal etish metodlarining tipologiya mezonlari ko‘rsatib berilgan”.

Hozirgi vaqtda kompetenlilik tushunchasining mazmun-mohiyati borasida turli talqin va nuqtayi nazarlar aytiladi. Tadqiqotlarimiz davomida kompetenlilikning

“faoliyatdagi bilim, ko‘nikma va malaka” sifatidan tavsif etilgan, ya’ni davlat ta’lim standartlarida OTM bitiruvchisining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablarni ko‘zda tutuvchi ta’rifidan foydalanamiz.

OTM bitiruvchisining kompetentlilik darajasiga umumnazariy talablardan kelib chiqqan holda qo‘yiladigan talablar OTM bitiruvchisi bilimi va malakaviy xususiyatlariga nisbatan Davlat ta’lim standartlari, uning malaka talablarida belgilanadi. Mazkur tartibga muvofiq, “Umumiy va noorganik kimyo” fani bo‘yicha bitiruvchi quyidagilarni bilishi lozim:

Noorganik kimyoda, oddiy va murakkab moddalar, kimyoviy reaksiyalar turlari, stexiometriya, ekvivalent, atom va molyar massa, mol Ideal gaz holatidagi moddalar: moddaning tuzilishi: atom-molekulyar ta’limoti, suyuqliklar va qattiq jismlar.

Davriylik qonuni; moddalarni fizikaviy-kimyoviy xossalari; kimyoviy termodinamika elementlari. Kimyoviy muvozanatlar Kimyoviy reaksiyalarning mexanizmalari va kinetikasi; eritmalar, kislotali-asosli muvozanatlar;

oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari, “Murakkab birikmalar, elementlar kimyosi, Asosiy guruhlar va kichik guruhlardagi elementlarning muhim kimyoviy birikmalari va ularning xususiyatlari, S, p, d va f turiga mansub elementlar guruhi. Metallar va metallmaslarning umumiy tavsifi, Temir va platina triadasi, Lantanoidlar va aktinoidlar. Noorganik birikmalarni tozalash va sintezlashning asosiy metodlari”.

Dissertatsiyaning **“Talabalarga noorganik kimyoni simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida ta’lim berishga o‘rgatishning takomillashtirilgan metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida noorganik kimyoni o‘qitish jarayonini takomillashtirish modeli, yo‘llari va metodikasi ishlab chiqilgan.

Noorganik kimyoni o‘qitish jarayonida moddalarni simmetrik ko‘rinishlarga ajratish orqali takomillashtirishga doir metodika mazmuni tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan modelda o‘z ifodasini topadi (1-rasm). Mazkur model maqsad, mazmunli-strategik va monitoring bloklardan iborat tarzda ifodalab chiqildi. Model asosini hosil qiluvchi tarkibning simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida ta’lim berish metodikasi tashkil etadi.

Simmetrik ko‘rinishlarga ajratish asosida ta’lim berish metodikasi g‘oyalaridan foydalanish shuni anglatadiki, bunda bo‘lajak kimyo fani darajasida bog‘liqlikka va muayyan iyerarxik tuzilmaga ega bo‘lgan elementlarning yaxlit yig‘indisini o‘zida aks ettiradi. Bundan kelib chiqadiki, moddalar va ular bilan bog‘liq xossalarni tavsif etishning umumlashgan holati ham murakkab iyerarxik tizim hisoblanadi. Ilmiy izlanishlarimiz natijasiga ko‘ra tadqiqotlarimizning birinchi bobida keltirilgan ilmiy, ilmiy-uslubiy va o‘quv adabiyotlarining tahlili-tasnifiga asoslanib, elementning invariantli xossasini (kimyoviy elementlarda mavjud atomning xossalari) quyidagicha izohlash mumkin:

kimyoviy elementning invariantli xossasiga qarab, uning davriy sistemadagi o‘zini o‘rni mavjud bo‘lib va ular quyidagi subinvariantli majmualarni oladi:

Kimyoviy elementlarning elektron tuzilishi ularning ion holati ya'ni anionli hamda kationligi kabi xossalari;

kimyoviy elementning ba'zi hossalari yani barcha kimyoviy reaksiya turlarida jadalligi, metall, yarimmetall, metallmas kabi xossalari;

kimyoviy element hosil qilgan alohida atom zarrachalarining atomning valentlik yaratish imkoniyatlari orqali kimyoviy bog'lanishlar o'rnatilish xususiyatlari, ya'ni ularda kovalent bog'lanish, ion bog'lanish, metall bog' hamda donor-akseptor bog'larni hosil qilishini ko'rish mumkin yoki oksidlanish-qaytarilish darajalarini o'zgarishlarini kuzatish mumkin shu bilan bir qatorda kimyoviy elementlar jadvalida o'z o'rniga egadir.

kimyoviy elementlarda atom zarrachalarining fizikaviy-kimyoviy xossalariga, radiusiga, ionlanish energiyasiga, atomning elektronlari, kationlar va anionlar kabi darajalarga ajratish mumkin;

kimyoviy bog'lanishlar hosil qilishda ishtirok etadigan atomlar ba'zida elektromanfiyliklari juda yuqori bo'lishi mumkin;

kimyoviy elementlar o'rganishda oddiy va murakkab moddalarga bo'lib o'rganish mumkin;

kimyoviy element hosil qilgan oddiy va murakkab moddalar andazaviy shakllarining reaksiyaviylik imkoniyatlarini ko'rsatuvchi asosiy vektorlar;

kimyoviy elementni unga yaqin turgan element bilan taqqoslash;

kimyoviy elementning tabiatdagi joylashuvi va mavjudligini baholash uchta mezon bo'yicha amalga oshiriladi: tarqalganlik darajasi, boshqa moddalar tarkibida ulushlilik (konsentratsiyasi) darajasi, ya'ni ma'dan hosil qiluvchanligi va tarqoqligi.


Element tavsifi darajasidagi variativ komponent (bo'lajak kimyo o'qituvchisining kelajakda barcha kimyoviy elementlarning xossalarini bilishi) bir tomondan aniq olingan elementlarning xususiyatlarini o'rganish sifatining turlichaligi bilan tavsiflanadi. Boshqa tomondan, o'qitish mazmuniga qo'shish uchun tarkibida muqarrar ravishda kimyoviy element mavjud bo'lgan murakkab moddalarning shaklini tanlashda kimyoviy birikmalarga asosiy e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Negaki, kimyoviy birikmalarning mavjudligi noorganik birikmalarning shajaraviy bog'liqliklarini yorqin tarzda namoyon qiladi. Bitta turga mansub bir necha modda yoki aynan bir xil subinvariantlik xossalarini namoyon qilgan bir necha kimyoviy reaksiyalar orasida boradigan jarayonlarni kimyo o'qitish metodikasi fanida zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o'rgatish juda yaxshi samara beradi.

Noorganik birikmalarning qolgan tasniflarini esa og'irlik markazini frontal va individual uy vazifalariga, individual dars topshiriqlariga va kurs ishlariga qadagan holda dars mashg'ulotlarida tanishuv tartibida o'rganish mumkin.

Xarita-rejalarni tuzish uchun noorganik birikmalarni batafsil tasniflab chiqishimizga to'g'ri keldi. Mana masalan, oksokislotalarni tasniflashda odatiy asoslamalardan tashqari quyidagilarni ajratib ko'rsatish qulaydek tuyuldi:

molekulalari ustuvor ravishda vodorodli aloqalar, Van-der-vaalsli aloqalar yordamida makrofirmaga kondensiyalangan molekulyar tuzilishli kislotalar;



1-rasm. Kimyoviy elementlarni o'qitish metodikasining modeli.

yarimkondensatsiya jarayonlari hisobiga eskirishga (qarishga) mahkum bog‘luvchi polimer xarakterli kislotalar;

oksid gidratlari aralashmalarini ifoda etuvchi kislotalar.

Dars jarayonlarida Noorganik kimyo fanini o‘qitishda konteksti taklif etilayotgan metodik tizimida quyidagicha ketma- ketlikda olish mumkin:

eng avvalo o‘rta maktabda o‘rgatiladigan noorganik kimyoda o‘tiladigan dastlabki mavzu atom va uning tarkibiy qismini talaba juda juqur anglab uqib olishi va tugallaydigan kursida

ham bu jarayonda mukammal bilimlar unda mujassamlashgan bo‘lishi kerak;

oddiy va murakkab moddalarning subinvariantiv tavsilotlarida, noorganik kimyoning eng muhim sinflariga tegishli mavzularda uning dastlabki g‘oya va bilimlari turadi;

modda xossalari umumiy tavsilotlariga ko‘ra variativ elementlari – kimyoviy reaksiyalarni aniq yondashgan holdagina ko‘rsatish mumkin;

bo‘lg‘usi professional faoliyat uchun ahamiyatga ega, modda va u bilan bog‘liq xossalarni tizimli tavsiflashning umumlashma ko‘nikmalarini bo‘lg‘usi o‘qituvchilarda shakllantirish orqali.

Mazkur metodikaning eng muhim xususiyati modda va uning xossalarini tavsiflashning umumlashma ko‘nikmasini shakllantirishni tadrijiy tarzda, ya‘ni bosqichma-bosqich amalga oshirishdir. Shakllantirish bosqichlari esa 2.5-rasmda keltirilgan.

Moddani tavsiflash ko‘nikmasini shakllantirishning tadrijiyligini moddani tashkil etishning bir qancha darajalari uchun modda tuzilishini tavsiflash ko‘nikmasi misolida ko‘rib chiqamiz.

“Noorganik moddalarning tuzilishi” subinvariant bloki mazmuni noorganik kimyoning eng murakkab bo‘limlaridan biri sanaladi. Oliy ta‘lim muassasalarida noorganik kimyo fanini oddiydan murakkabga qadar mavzulashtirilgan ketma-ketkida o‘rgatilib boriladi va shu bilim yurtini tugatayotgan talabada bu fanga tegishli bilim, tushuncha va ko‘nikmalar mujassamlashtirilgan bo‘ladi.

Bugungi globallashuv jarayonida ta‘lim jarayonini tashkil etishda o‘qitishning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish talab etilmoqda. O‘qitishning turli zamonaviy metodlarini qo‘llash ta‘lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi. Zamonaviy metodlarni har bir fan, har bir darsning didaktik maqsad va vazifasidan kelib chiqib tanlash yaxshi natija beradi. An‘anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda unga o‘quvchilarni faollashtiradigan turli xil metodlarni olib kirish ta‘lim oluvchi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi oshishiga zamin bo‘ladi. Bu metodlardan foydalanilganda o‘qituvchi o‘quvchini faol ishtirok etishga chaqiradi. Ta‘lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Noorganik moddalarni kimyoviy bog‘lanishlar mavzusini simmetrik shakllarga qiyoslab mavzuni tushuntirilsa talabalar tomonidan mavzuni yanada yaxshi o‘zlashtirish imkoniyatini beradi.

Grafik organayzerlar, Fishboun, “Nima ushun?”, “4 taraf”, “Globoalfavit” “A4 FORMATI”, “Innovatsion simmetriya” kabi metodlar noorganik kimyo fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va ularni amalga oshirish metodikasi**” deb nomlangan. Ushbu bobda tadqiqot muammosiga doir tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi, pedagogik eksperiment natijalari hamda tadqiqot natijalarining samaradorligiga doir ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan.

Noorganik kimyoni o‘rganishning metodik tizimi samaradorligini invariantlar va subinvariantlarni ajratish asosida tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish bir nasha bosqishda olib borildi: qayd etuvshi, tadqiqot, eksperimental, yakunlovshi.

Tajriba-sinov ishlari davomida o‘zimiz ishlab chiqqan modelning amaliyotga tatbiq etilishini tajriba-sinov ishlari tekshiruvdan o‘tkazdik, unga tuzatishlar kiritib bordik.

Ajratib olingan invariantlar asosida o‘qitish metodikasini ishlatib ko‘rish Qarshi davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti hamda Farg‘ona davlat universitetlari negizida ham amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlarida “Kimyo va biologik” yo‘nalishining 62 nafar talabasi qatnashdi. Tajriba-sinov ishlari ikki semestr mobaynida o‘tdi (haftasiga 4 soat ma’ruza, 4 soat laboratoriya mashg‘uloti va ikki soat amaliy mashg‘ulotlar).

Talabalarda moddalarni simmetrik ko‘rinishlarga ajrata olish qobiliyatining rivojlanganlik mezonlari sifatida quyidagi ko‘rsatkichlar belgilab olindi:

1-mezon: Kimyoviy birikmalarning reaksiyon mohiyatini to‘g‘ri anglaydi.

2-mezon: Noorganik birikmalarning xossalari haqida yaxlit tushunchaga ega va ularni qiyoslay oladi.

3-mezon: Mustaqil ravishda noorganik moddalarning xossalarini simmetrik ko‘rinishlarga ajrata oladi.

Pedagogik samaradorlikni aniqlashdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlarga quyidagilar kiradi:

noorganik kimyoda moddalarni simmetrik ko‘rinishlarga ajrata olish imkoniyatlarini aniqlash;


simmetrik ko‘rinishlarga ajrata olishning maqbul metodikasini tanlash;

kimyo o‘qituvchisining simmetrik moddalardan pedagogik faoliyatning boshqa turlarida ham foydalanishiga erishish.

1-jadval

Tajriba-sinov o‘tkazilgan oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha umumiy natijalar

Barcha OTMLar	Ko‘rsat Kichlari	Tajriba guruhleri				Nazorat guruhleri			
		Tajriba boshida	%	Tajriba oxirida	%	Tajriba boshida	%	Tajriba oxirida	%
Barcha viloyatlar OTMLari	<i>Yuqori</i>	55	28	84	42	56	28	66	33
	<i>Yaxshi</i>	59	30	88	44	62	31	73	36
	<i>O‘rta</i>	65	33	25	13	64	32	50	25
	<i>Past</i>	21	11	3	2	20	10	13	6
Jami:		200	100	200	100	202	100	202	100



2-rasm. Tajriba-sinov o'tkazilgan oliy ta'lim muassasalari bo'yicha umumiy natijalar o'zlashtirish ko'rsatkichlari diagrammasi.

Olingan sonli ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilishda Styudentning tanlama mezoni, K.Pirsonning muvofiqlik kriteriyasi, Laplas funksiyasidan foydalanildi.

Tajriba va nazorat guruhidagi baholash natijalarini mos ravishda 1 va 2-tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo'lamiz:

2-jadval

Tajriba va nazorat guruhlaridagi baholash natijalari

1-tanlanma						
Tajriba guruhi	X_i	Yuqori	Yaxshi	O'rt'a	Past	Jami
	n_i	84	88	25	3	n=200
2-tanlanma						
Nazorat guruhi	Y_j	Yuqori	Yaxshi	O'rt'a	Past	Jami
	m_j	66	73	50	13	m=202

O'zlashtirish darajasini quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 n_i X_i = \frac{1}{200} (84 \cdot 5 + 88 \cdot 4 + 25 \cdot 3 + 3 \cdot 6) =$$

$$= \frac{1}{200} (420 + 352 + 75 + 18) = \frac{865}{200} = 4,32 \approx 4,3$$

$$\text{Foizda } \overline{X\%} = \frac{4,32}{4} \cdot 100\% = 108\%$$

$$\overline{Y} = \frac{1}{m} \sum_{j=1}^3 n_j Y_j = \frac{1}{202} (66 \cdot 5 + 73 \cdot 4 + 50 \cdot 3 + 13 \cdot 2) =$$

$$= \frac{1}{202} (330 + 292 + 150 + 26) = \frac{798}{202} = 3,95 \approx 3,9$$

$$\text{Foizda } \overline{Y\%} = \frac{3,95}{4} \cdot 100\% = 98\%$$

Tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan ko'rsatkichidan $(108-98) \% = 10 \%$ ga yuqori ekan. Bu esa o'z navbatida $\frac{108\%}{98\%} = 1,10$ barobar ortiqligini anglatadi.

Demak, tajriba guruhida o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhidagidan yuqori ekan: $\overline{X} > \overline{Y}$.

Yuqoridagi hisoblashlardan ma'lum bo'ldiki, o'qitish samaradorligining baholash mezoni va bilish darajasining baholash mezoni noldan katta ekan. Bundan shuni aytish mumkinki, tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhidagidan yuqori ekan.

Ushbu o'zlashtirish ko'rsatkichlarini foizlarda hisoblaymiz:

$$P = \left(\frac{\overline{X}}{4} \cdot 100 \right) - \frac{\overline{Y}}{4} \cdot 100\% = 9,25\%;$$

Bundan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan $9,25 \approx 10\%$ ga oshganligini ko'rish mumkin.

Tadqiqot davomida oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistik jihatdan isbotlandi.

Talabalar simmetrik ko'rinishlar orqali taqdim etiladigan mo'ljalli faoliyat sxemalarini idrok etishlari asnosida ularda muayyan malaka va ko'nikmalar ko'rinishidagi faoliyat tajribasi shakllanadi. Bu tajriba ular uchun yo'riqnoma bo'lib xizmat qilgani barobarida o'quv harakatlari amalga oshiriladigan sharoitlarga yo'naltiradi.

Taklif etilayotgan simmetrik ko'rinishlarga ajratish asosida ta'lim berish metodikasi noorganik modda va u bilan bog'liq xossalarni tavsiflash ko'nikmasi shakllanadi. Ushbu ko'nikma bo'lg'usi kimyo fani o'qituvchisi uchun yetakchi kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Tajriba-sinov ishlari tadqiqot natijalari qo'yilgan vazifalarni to'liq hal etilganligini tasdiqladi va quyidagi xulosalarni qilishga imkon berdi:

1. Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan tadqiqot muammosiga doir ilmiy, o'quv metodik adabiyotlar, uslubiy qo'llanmalar, maqolalar hamda materiallar tahlilini o'rganilar ekan, kelajak avlodga ta'lim berayotgan Noorganik kimyo fani o'qituvchisini har tomonlama mukammal, irodali, serqirra ilmiy, zakovatli, o'z kasbini yetuk kadri bo'lib shakllangan shaxs bo'lishi lozim. Ayni vaqtda

fundamentallashtirish va professional kontekstni hisobga olish asosida kimyo fani o'qituvchilarini tayyorlash tizimini ishlab chiqish uchun dastlabki zamin hisoblanadi.

2. Noorganik moddalarning eng muhim tasniflari uchun moddaning invariant tavsifi tarkibi yanada batafsil detallashtirishni taqozo etadi. Belgilandiki, u quyidagilar:

- "Tasniflash" invariant bloki uchun tuzilishning muhim tavsiflarini, fizik va kimyoviy xossalarni ajratib olish;

- "Tuzilish" invariant bloki strukturasini aniqlashda moddaning tuzilishiga darajali yondashuv";

- "Fizik xossalar" invariant bloki uchun sifat darajasida moddaning fizikaviy xossalarini bashoratlash maqsadida bilimlar blokidan foydalanish imkoniyati hamda kimyoviy xossalarni bashoratlash maqsadida fizik xossalarni qo'llash imkoniyati asosida subinvariant elementlari tizimini ajratishdan iborat bo'ladi.

3. OTMda tahsil olayotgan talabalariga kimyoning mazmun-mohiyatini to'liq izohlab berishi, subinvariant va invariantligini, moddalarning simmetriklik xossasini yetkazib beraolishi kerak, hamda genetik aloqalarning kengaytirilgan tizimi asosida noorganik moddalarning eng muhim tasniflarini olishning usullarini ko'rib chiqishni talab etadi.

4. Invariantlar, subinvariantlar va moddaning variativ elementlari, ular bilan bog'liq kimyoviy jarayonlarni ajratish negizida tadqiqot ishida ishlab chiqilgan oliy ta'lim muassasalarida elementlarning noorganik kimyosiga o'qitish modeli shuni isbotladiki, elementlar noorganik kimyosi mazmunini saralab olishga va uni o'zlashtirish bo'yicha faoliyatni tashkil etishga tizimli yondashuv va simmetrik ko'rinishlarga ajratish asosida ta'lim berish metodikasidan foydalanilganda noorganik kimyoga o'qitish samaradorlik kasb etadi.

5. Talabalarda moddani kimyoviy jarayonlar bilan aloqadorlikda tavsiflashning umumlashma ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari ishlab chiqildi va ro'yobga chiqarildi. Talabalarga o'quv mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llagan holda, barcha talabalarning intellektual salohiyatini oshishi, talabalarda fanga nisbatan qiziqish hamda bilimi yanada takomillashtirish, fanga nisbatan ko'nikmalar hosil qilish, nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishda hamda mustahkamlashda yordam beradi.

6. Talabalarning noorganik kimyodan moddalarni simmetrik ko'rinishlarga ajratish orqali o'zlashtirish ko'rsatkichlarini kimyoviy birikmalarning reaksiyon mohiyatini to'g'ri anglash; noorganik birikmalarning xossalari haqida yaxlit tushunchaga ega va ularni qiyoslay olish; mustaqil ravishda noorganik moddalarning xossalarini simmetrik ko'rinishlarga ajrata olish kabi mezonlar asosida aniqlash jarayon maqsadiga muvofiq hisoblanadi.

7. Taklif etilgan metodika natijadorligini aniqlash imkonini beruvchi adekvat nazorat metodlari va tashhislash usullari tanlab olindi. O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, taklif etilgan metodik tizim talabalarda elementlar noorganik kimyosi fanidan tizimli bilimlar, modda va u bilan bog'liq kimyoviy jarayonlarni ham reproduksiya darajasida, ham ko'chirish va qisman bashoratlash darajalarida tavsiflash ko'nikmalarini shakllantirishiga zamin hozirlaydi.

TAVSIYALAR

1. Tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarda nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar bilan bir qatorda naturalistik intellektni rivojlantirishga doir psixologik-pedagogik manbalar asosida metodik ishlanmalar ishlab chiqish yosh avlodda kasbiy kompetentlik hamda tabiatga ijobiy munosabatni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

2. Kimyo fanini o‘qitish jarayonida o‘qituvchilarni o‘quv materiallarini vizuallashtirish maqsadida dasturiy vositalarni tizimlashtirish hamda takomillashtirishga doir amaliy ko‘nikmalar bilan qurollantirish, buning uchun esa axborot texnologiyalarini sohaga bog‘liq holda tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Tabiiy fanlar ta’limi jarayonini ekologik bilimlar berish bilan uyg‘unlashtirish asosida talabalarda naturalistik intellektni rivojlantirish soha mutaxassislari tayyorlash tizimini takomillashtirishga yordam beradi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
PhD.03/30.04.2022.К.78.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНИ
ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХОЛМУРОДОВА ЛАЗИЗА ЭРКИНОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ
РАЗДЕЛЕНИЯ ВЕЩЕСТВ НА СИММЕТРИЧНЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ В
НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

13.00.02-Теория и методика обучения и воспитания (химия)

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Термез – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5236 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb-sahifasida www.tersu.uz va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Sodiq Norchayevich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Eshqurbonov Furqat Bozorovich
kimyo fanlari doktori, professor

Norbo'tayev Xo'shboq Bobonazarovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.04.2022.K.78.05 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil «20» XII soat 11⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 270 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «7» XII kuni tarqatildi.

(2024-yil «7» XII daqiqa 1 - raqamli reyestr bayonnomasi).



Z.Z. Yaxshiyeva

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash raisi, k.f.d., prof.

Y.A. Geldiyev

Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, k.f.d.

P.J. Tojiyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., dots.

ВВЕДЕНИЕ

Актуальность и востребованность темы диссертации. Мировая система высшего образования ставит своей главной целью подготовку педагогов к будущей деятельности, то есть подготовку их к обучению как процессу деятельности в школе. Одним из важных аспектов, который формируется у выпускника высшего образования, является готовность систематически представлять знания по предметам обучающимся. Он обеспечивает изучение и развитие окружающего мира у обучающихся, а также реализацию таких компонентов, как обучение и воспитание.

Наряду с преподаванием органической химии в мировом образовании и преподавание неорганической химии занимает одно из ведущих мест. Преподавание неорганической и органической химии осуществляется учителями, обучающимися в высших учебных заведениях, в процессе дальнейшего обучения. При изучении этих дисциплин в высшем образовании у студентов сформировалось системное представление о химических неорганических веществах.

Формирование знаний об элементах химии у студентов высших учебных заведений нашей страны владение формальным описанием в настоящее время является основной проблемой. Традиционные формы изучения курса химии обучения, формы его изложения и организации, методы способствуют относительному формированию у учащихся системных представлений о химии. Фундаментализация и профессионализация лежат в основе предлагаемых решений для изучения химических элементов по решению данной проблемы. Фундаментализация и профессионализация опираются на овладение элементами химии в качестве основы - относительно глубокое и систематическое использование теоретических аспектов курса общей химии.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП-5712 от 29 апреля 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», № ПП-3236 от 23 августа 2017 года «О программе развития химической промышленности на 2017-2021 годы», № ПП-1740 от 16 апреля 2012 года «О мерах по реализации инвестиционного проекта «Создание национальной сети «Электронное образование» в Республике Узбекистан», № ПП-4306 от 03 мая 2019 года «О мерах по организации непрерывной системы выявления одаренной молодежи и подготовки высококвалифицированных кадров», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 228 от 25 июля 2012 года «О создании центра внедрения электронного образования в образовательных учреждениях при Министерстве высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан», а также иных нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

